



Mirshod HASANOV,
Texnologiya, menejment va kommunikasiya instituti dotsenti v.b
E-mail: mirshodhasanov02@gmail.com

TMC instuti f.f.d. prof. F.Musayev taqrizi asosida

ABU NASR FOROBIY TA'LIMOTIDA DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVINI INSONPARVARLASHTIRISH TAMOYILLARI

Аннотация

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning siyosiy-falsafiy qarashlari, xususan, davlat va jamiyat boshqaruvida insonparvarlik tamoyillarining o'rni tahlil qilinadi. Forobiy ta'limotida ideal jamiyat va mukammal shahar modeli inson manfaatlarini, axloqiy qadriyatlar, bilim va adolat asosida tashkil etilishi zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda adolatli boshqaruv tizimini rivojlantirishda Forobiy merosining dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Forobiy, davlat boshqaruvi, jamiyat, insonparvarlik, adolat, fuqarolik jamiyati, falsafa.

PRINCIPLES OF HUMANIZATION OF STATE AND SOCIETY MANAGEMENT IN THE TEACHINGS OF ABU NASR AL-FARABI

Annotation

This article analyzes the political and philosophical views of the great thinker Abu Nasr Al-Farabi, in particular, the role of humanistic principles in state and society management. Al-Farabi's teachings substantiate the need to organize an ideal society and a model of a perfect city based on human interests, moral values, knowledge and justice. It also highlights the relevance of Al-Farabi's legacy in ensuring human rights, forming a civil society and developing a fair governance system today.

Key words: Abu Nasr Al-Farabi, state management, society, humanism, justice, civil society, philosophy.

ПРИНЦИПЫ ГУМАНИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВОМ И ОБЩЕСТВОМ В УЧЕНИИ АБУ НАСРА АЛЬ-ФАРАБИ

Аннотация

В статье анализируются политико-философские взгляды великого мыслителя Абу Насра аль-Фараби, в частности, роль гуманистических принципов в управлении государством и обществом. В учении аль-Фараби обосновывается необходимость построения идеального общества и модели совершенного города, основанного на интересах человека, нравственных ценностях, знаниях и справедливости. Также подчеркивается актуальность наследия аль-Фараби в обеспечении прав человека, формировании гражданского общества и развитии справедливой системы управления в наши дни.

Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, государственное управление, общество, гуманизм, справедливость, гражданское общество, философия.

Kirish. O'rta asr Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy ijtimoiy-falsafiy qarashlari hamda insonparvarlik g'oyalari bilan tarixda chuqur iz qoldirdilar. Har bir davrning madaniy merosi o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettiradi va keyingi jamiyatlarga vorislik asosida o'tadi. Buyuk allomalarimiz inson qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi, adolat va tinchlik haqidagi g'oyalarni ilgari surib, ularni butun insoniyat uchun qadrlı meros sifatida qoldirdilar. Forobiy esa jamiyatda inoq va do'stona yashash, tinchlik va adolatli jamiyat qurishni eng oliy qadriyat sifatida targ'ib qildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Allomaning insonparvarlik g'oyalariga uning ko'plab asarlarida jumladan, "Davlat arbobi maqollari", "Baxt yo'liga ishora", "Fuqarolik siyosati", "Ritorika", "San'at" singari asarlarida ham to'xtalib o'tilgan. Bunday nuqtai nazar Forobiydan keyin ijod qilgan allomalarimiz faoliyatida ham kuzatiladi. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarida "inson taqdiri, xalq manfaati, mamlakat haqida g'amxo'rlikni asosiy masala qilib qo'ygan. Dunyoda yeng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg'a surgan. Uning fikrishga, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga

xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan islom dinida ham insonparvarlik g'oyalari o'z ifodasini torgan. Unda faqir, kambag'al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, sahovatli va insofli bo'lishga da'vat qilinadi". Bizga tarixdan ayonki, Adolatsiz shox va saltanatda inson arzon va beqadr bo'lgan. Shu sabab Forobiy, Navoiy kabi allomalarimiz fazilatli va adolatli shox hamda adolatli jamiyatdagi inson qadr qimmatini erishishni orzu qilishgan.

IX–X asrlardagi siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy yutuqlar mutafakkirlarning inson aqliga ishonchini mustahkamladi. Forobiy g'oyalarida insonparvarlik jamiyatni birlashtiruvchi va tinchlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Unga ko'ra, insonparvarlik boshqa axloqiy fazilatlarining (vatanparvarlik, erksevarlik, fidoiylik, tinchlikparvarlik va boshqalar) poydevoridir. Shuning uchun ham alloma inson kamolotiga faqat insonparvarlik orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Muallimning falsafiy antropologiyasidagi axloqiy qarashlarining bosh g'oyasi bo'lgan insonparvarlik tamoyili falsafiy nuqtai nazardan hali maxsus tadqiq yetilmagan. Umuman, Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlarida aks yetgan insonparvarlik tamoyili bugungi ijtimoiy-ma'naviy hayot bilan muvofiqligi yoki

tafovuti masalasi hozirgi ilmiy tadqiqotlar doirasidan chetda qolmayapti.

Tadqiqot metodologiyasi. F.A. Muhiddinovaning “Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta’limotlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlari asosida)” ilmiy tadqiqot ishida Forobiyning davlat va insonparvarlik ta’limoti bugungi kun talablaridan kelib shiqib tadqiq qilingan, desak mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Mutafakkirning ta’limotidan milliy davlatshiligidimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti rivojlanishida foydalanishning konsyertual asoslarini yaratish, uning merosini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalarini aniqlash hamda davlat va jamiyatning mohiyatini, ularni boshqarish shakllari haqidagi ta’limotlari muhim ahamiyatga ega.

Forobiy davlat boshqaruvida insonparvarlikni ta’minlashda rahbar shaxsining alohida o‘mini ta’kidlaydi. Uning fikricha, rahbar xalqni o‘rgatib, yo‘l ko‘rsata olishi, adolatli bo‘lishi va ilm-fanda yetuk bo‘lishi lozim. Faylasuf “adil podshoh”ni xalqni himoya qiluvchi, adolatsizlikni kuzatib boruvchi hamda amaldorlar orasiga solihlarni yig‘uvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Alloma qarashlari qadimgi yunon faylasuflari bilan hamohangdir. Aflotun adolatni jamiyat uyg‘unligi, Arastu esa uni haqiqat va qonuniylik bilan bog‘lagan. Shu bois, adolat jamiyat taraqqiyotining asosiy qadriyati sanaladi. Adolatning huquqiy va falsafiy ta’riflari turlicha talqin qilinsa-da, u har qanday jamiyatda barqarorlik va insonparvarlikning muhim omilidir.

Mutafakkirning fikricha, ideal jamiyatni adolatli va ma’rifatli hukmdor shakllantiradi. Jamiyatning boshqa barsha a’zolaridan farqli o‘laroq, hukmdor o‘ta tarbiyali, o‘ta ma’rifatli, amaliy tajribali bo‘lishi darkor. Hukmdorning ma’rifatligi sharofati uning madaniyatli, latif va adolatli bo‘lishiga sabab bo‘ladi, deydi. Muallimning bunday qarashlari “Fozil odamlar shahri” asarida o‘z tasdig‘ini torgan. Bunday qarash qadimgi yunon faylasufi Aflotunda ham mavjud bo‘lib, u o‘zining “Qonunlar” risolasida davlat, siyosat uni boshqarish uslublari to‘g‘risida fikr yuritir yekan, aristokratik davlat va siyosat g‘oyasini ilgari suradi. Bunday davlatni uning fikricha, “aqli, ishbilarmon, dono, qobiliyatli kishilar guruhi idora qilishi kerak”. Aflotunning qarashida, odillik shaxsiy fazilat bo‘lmasdan, balki davlatga xos fazilatdir. Ideal davlat majburiy idoradir. “Barsha ijtimoiy hayot oliy tamoyilga, ya’ni davlat yyerdagi hayotning oliy shakli sifatida tarbiyaviy ahamiyatga yega bo‘lib, kishilarni yangi fazilatlariga, fazoviy hayotga tayyorlaydi. U o‘z vazifasini ado yetgash, Xudoning yyerdagi makoniga aylanadi”.

Shu kabi qarashning ba’zi xususiyatlarini Arastu g‘oyalari ham ushratish mumkin. Jumladan, Arastu “Yetika”sida axloqiy fazilatlar orasida birinshi o‘rinda adolat turadi. Arastu adolatsizlik deganda qonunni buzuvshilar, boshqalardan ortiqroq oladigan va barshaga teng munosabatda bo‘lmaydigan kishilarni tushunadi. Qonunga yarasha ish qiladigan, barshaga barobar qaraydigan kishilarni adolatli deb hisoblaydi. Uningsha, barsha kishilar, adolat mutanosibligiga amal qilishga rozi.

Abu Nasr Forobiy “Fozil shahar aholisining qarashlari” asarida davlatning kelib shiqishini odamlarning o‘z yehtiyolarini qondirishga bo‘lgan istagi bilan bog‘laydi. Davlat boshlig‘i va davlat xizmatshilari boshqaruv san’atini yaxshi bilishlari kerak. Shunday boshqaruv kishilarni baxtga, tinshlikka olib boradi. Bunday davlatda boshqaruv adolatlidir”. Forobiy mulohazalariga ko‘ra, “Haqiqiy farovon davlat ush narsa: fozil jamiyat (xalq), adolatli tuzum va odil hukmdor asosida tashkil toradi hamda bu davlatning idorasida davlatning ushala asosi o‘z o‘rni va vaqti bilan teng ishtirok yetadi. Ana shu ushallasining o‘zaro muvofiqligi, maqsadga ko‘ra bir

yo‘nalishdaligi vazifa jihatidan aniq va haqiqatga qaratilgan xatti-harakati davlatning haqiqiy asosini ta’minlaydi”.

Abu Rayhon Beruniy qarashlarida ham ijtimoiy adolat haqidagi g‘oyalarni ko‘rishimiz mumkinki. Odamlar ijtimoiy adolatli tartib o‘rnatish ushun davlatga birlashadilar. Hukmdor va qonunlar jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi, uni zulmdan himoya qilishi lozim. Har bir inson yesa o‘zi kabi odamlarning bittasi yekanligini bilgan holda, boshqalarga zarar yemas, foyda keltirib yashashi kerak. Beruniy: “Yunon faylasuflari avom xalq ushun yemas, balki yuqori tabaqalar ushun usul va qoidalar ishlab shiqqanlar”, deydi. “Davlatni boshqarish – deydi Beruniy – jabrlanuvshilar huquqini zo‘ravonlardan himoya qilish, boshqariluvshi xalq tinshligini saqlash ushun o‘z tinshligidan voz keshish demakdir”. U adolatli hukmdorning asosiy vazifasi kushli va kushsizlar o‘rtasida tenglik, yuqori va rast darajadagilar orasida adolat o‘rnatishdan iborat, deb biladi.

Ibn Sino qarashlarida yesa “davlatsez qonun-qoidalar bo‘lmasligini ye’tirof yetadi. U moddiy tenglikni, lekin odamlarning boy yashashlarini yoqlaydi, hamma a’zolar ushun bir xil bo‘lgan tartiblar o‘rnatilgan jamiyatda adolatsizlik bo‘lmaydi, deb qaraydi”.

Forobiyda ijtimoiy adolatni kafolatli ta’minlovshi “asosiy vosita va kush bu qonunlar hamda qonun ustuvorligidir. Mutafakkir “qonun farovonlik yo‘lidir, ular har qanday aqlilikdan ham benihoya ustun turadilar, ularning o‘zi o‘z holisha olijanob, yuqori martabali bo‘lishi kerak va uning nomidan hamda u (qonun) haqda nimaiki garirilsa ham mo‘tabar bo‘lishi lozim”. Ammo “Qonunlarning ko‘rligi befoydadir, shunki ularni bilmagan va ularga bo‘ysunmaydiganlar (qonunlarni) ni bema’ni deb atashni xohlab qoladilar”, degan yedi. Alloma “Fozil odamlar shahri” asaridagi qarashlarida, inson o‘z tabiatiga ko‘ra doimo boshqa insonlar bilan munosabatda bo‘lishga intiladi. U yashash ushun ko‘r narsalarga muhtoj bo‘ladi, ularga yega bo‘lish kishilik jamoasiga yehtiyoy tug‘diradi. Shu sababli, ko‘r kishilarning birlashuvidan inson jamoasi vujudga keldi. Xuddi ana shu o‘zaro intilish, harakat asosida jamiyat va undan yesa davlat kelib shiqishini ye’tirof yetadi”.

Forobiy fikricha, hukmdor siyosiy faoliyatning asosiy vazifasi davlatda huquqiy meyorlar va qoidalarni o‘rganishdan iborat bo‘lib, fuqarolarning turmush darajalarini, tinshligini ta’minlash va rivojlantirish yo‘llarini, inson va usullarini ko‘rsatib berishi kerak. U davlatning vazifasini mamlakat aholisining baxtli hayotini ta’minlash va qo‘riqlashdan iborat, deb hisoblaydi.

Forobiy “shahar” tushunchasini “davlat” bilan uyg‘un holda talqin etadi. U shahar-davlatning ijtimoiy hayotini to‘liq tasvirlab, yaxshi shaharlarning ilg‘or tuzilishini belgilaydi. Davlat boshqaruvin takomillashtirish uchun u demokratik, adolatli va oqil rahbar g‘oyasini ilgari suradi. Olim nazarida jamiyatning birinchi yetuk modeli shahar-davlat boshqaruvi bo‘lib, unda axloqiy qadriyatlarga ustuvorlik berilishi barqarorlikning asosiy shartidir. Dono hukmdor timsolida aks etgan komil inson g‘oyasi uning cho‘qqisidir. Forobiyning ta’kidlashicha, madaniy jamiyatda odamlar kasb-hunarda ozod, teng huquqli bo‘lib, har kim o‘z ixtiyoriga ko‘ra faoliyat yuritadi va chin ma’noda erkin yashaydi.

Abu Nasr Forobiy ta’biricha, “Faylasuf ham, imom ham adolat bilan shaharni boshqaradi, har ikkalasi ham faol aql bilan aloqa qilish qudratiga yegaligini ta’kidlaydi. Faol aql ham diniy bilimlar, ham ijtimoiy tuzum ushun zarur bilimlar manbaidir. Rayg‘ambarning faylasufdan farqi shundaki, birinshisi ilmni tasavvur kushi bilan, ikkinshisi, imtihon va tafakkur kushi bilan oladi. Shunday qilib, Forobiy dinni falsafa, aql va vahiy bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Mutafakkir fikricha, dinning ham, falsafaning ham manbai faol aqlidir, bu haqiqat”.

Alloma davlatni mukammal shakllanishini va insoniyat taraqqiyoti muammolarini aniq va amaliy jihatdan ko'rib shiqqan. Alloma yunon faylasuflarining davlat boshqaruviga oid g'oyalarini tahlil qilish bilan birga o'zining yaxshi shahar konsyerasiyasini yaratdi. Makiavellining "Hukmdor" nomli mashhur asari Yyevrora hamjamiyatining boshqaruv tamoyillarini ko'rsatib berganidek, Abu Nasr Forobiy ta'limoti ham Osiyodagi siyosiy taraqqiyotning hozirgi tamoyillarini tushunish ushuni ko'rrikdir.

Forobiy xayrli shahar-davlat hukmdori imom bo'lishi kerak, deya yozsa-da, bunda u hokimning ruhi va tanasi pokligini nazarda tutadi. Hukmdor aql-zakovatli, haqiqatparvarlarni hurmat qiluvchi, yolg'on va adolatsizlikka qarshi kurashuvchi, odil, qat'iyatli va jasur bo'lishi lozim. U adolatni hurmat qilib, zulm va tubanlikni yomon ko'rishi, har qanday nohaqlikka qarshi sobit turishi kerak. Forobiy zamonaviy jamiyat uchun ham davlat rahbarining idealini belgilashga urinadi. Uning "Yaxshi fuqarolar qarashlari haqida risola"sida ijtimoiy-siyosiy qarashlari tizimlashtirilgan bo'lib, ezgu shahar haqidagi ta'limoti Aflotun g'oyalariga asoslangan, ammo Islom xalifaligi voqeligidan kelib chiqqan holda o'ziga xos yo'nalishga ega edi. Mutafakkir jamiyat mukammal modelining yana bir xususiyati geosiyosiy zamindir deya ta'kidlaydi. U Arastu singari siyosatni geografiya bilan bog'lab, uni nafaqat tabiiy-geografik komponentlarni, balki fazo-hududiy omillarni ham o'z ishiga olgan hududiy jihat bilan to'ldiradi. Masalan, Forobiy fikrisha, insoniyat jamiyati "bir joyda ko'r odamlarning birlashishi" bo'lib, bu omillarning birgalikdagi ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin. Hozirgi talqinda biz milliy identifikatsiya sifatida rostulatga murojaat qilamiz.

Abu Nasr Forobiy bilimga intilishni insonning eng zarur ehtiyoji deb biladi. Unga ko'ra, foydasiz yoki ortiqcha bilim emas, balki zaruratdan tug'ilgan bilim qadrlidir. Forobiy etnogenezni tabiiy sharoit, xalq xarakteri va til bilan bog'laydi, geografik omillarni muhim deb hisoblaydi. U eng yaxshi shaharni "jamoaviy shahar" sifatida tasvirlab, unda odamlar erkin yashashi va hukmdorlarini o'zlari saylashi kerakligini ta'kidlaydi. Bu fikrlar More va Kampanella asarlariga hamohangdir. Forobiy falsafasida inson va axloq asosiy o'rinda bo'lib, jamiyat kamoloti odamlar o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq. Hukmdor esa shifokor singari nafaqat tanani, balki ruhni ham davolashi, jamiyatni ma'naviy birlik sifatida boshqarishi lozim.

Forobiy siyosiy qarashlarida "yaxshi" va "johil" shaharlarni tasniflaydi: mehribon shahar, johil shahar, axloqsiz shahar, yo'qolgan shahar va "o'zgaruvchan shahar". Yaxshi shahar ideal bo'lsa, johil shahar ma'rifat, ta'lim-tarbiya va dono hukmdor bilan obod bo'lishi mumkin. Forobiy johil shaharni eng yomon turi deb biladi, ammo unda ezgulikka yetaklovchi imkoniyatlar yo'qolmaydi. Faylasuf ba'zan jamoaviy shaharni erkin shahar deb ataydi. Uning fikricha, muruvvatli davlat-shahar insoniy munosabatlarning eng oliy shakli bo'lib, adolatli tartib, hukmdor va xalqning yuksak axloqiy fazilatlariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinshi rrezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Abu Nasr Forobiyning o'sha mashhur "Fozil odamlar shahri" asarini yesga olaylik. Bundan ming yilsha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvshi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muamolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo'l-yo'liqlarni tora oladi". Demak, Farobiyning davlat va adolatli jamiyat boshqaruvi hamda insonravarlik haqidagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalari bugungi kunda davlat va jamiyatini hamda insonlarda muhim axloqiy mezonlarni yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi desak bo'ladi, nazarimizda.

Tahlil va natijalar. Forobiyning insonparvarlik va xayriya ta'limoti aql, baxt va inson qadriyatlarini orqali namoyon bo'ladi. Unga ko'ra, haqiqiy baxt — to'g'ri tanlov va ezgulikda. Insonning ongli harakati esa eng buyuk yaxshilik va mavjudotning maqsadi hisoblanadi. Forobiy asarlarida baxt inson hayotining oliy maqsadi sifatida talqin qilinib, u sezgi, ruhiy ta'sir va oqilona fikrlash bilan chambarchas bog'lanadi. Alloma komil insonni ilm-fanga intiluvchi, adolatli, haqiqat tarafdori, shahvat va boylikka mukkasidan ketmagan, aql va ma'naviyat bilan kamol topuvchi shaxs sifatida tasvirlaydi.

Insonni shunday tushunish Forobiy falsafasining mohiyatidan kelib shiqadi. Agar dunyoga ranteizm (diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligi) nuqtai nazaridan baho bersa, u insonni tabiiy-ma'naviy ruh, qalb va qalb sof ma'naviy substansiya deb biladi. Inson va dunyo muammolarini shu tarzda ko'rib shiqish zamonaviy ma'naviy vaziyat talablariga javob beradi. XXI asrda dunyoga va insonga falsafiy yondashuv butun bir universallik sifatida shakllanmoqda. Uning o'zagi uning qalbi, ruhiy aqlidir. Falsafa tarixi axloqda to'rangan ana shu o'ziga xoslikni o'zlashtirmoqda. U bu haqiqatning ko'zi va qulog'i bo'la oldi. Unga yaqin odam Forobiy bo'lib, aynan uning falsafasi o'z davriga va shuning ushuni abadiylikka tegishli bo'lgan yedi.

Abu Nasr Forobiyni O'rta Osiyo va G'arb madaniyati ilm-fani rivoji ta'sirida hamda insoniyat va jamiyat hayotida insonravarlik g'oyasini singdirgan alloma sifatida ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda inson qadri va insonravarlik g'oyalariga alohida ye'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunshilik hujjatlarida aks yetgan inson huquq va manfaatlar ustuvorligi masalalari Forobiyning insonravarlik g'oyalari bilan uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddimasidayoq inson qadri, huquq, erkinliklari va yuksak insonravarlik g'oyalari aks yetgan. Konstitutsiyasining bo'lim va boblariga nazar tashlasak quyidagisha nomlanganiga nazarimiz tushadi:

- II bob. Xalq hokimiyatchiligi;
- III bob. Konstitutsiya va qonunning ustunligi;
- II bo'lim. Inson va fuqaroning asosiy huquqlari,

erkinliklari va burchlari;

- VII bob. Shaxsiy huquq va yerkinliklar;

- X bob. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari;

- III bo'lim. Jamiyat va shaxs.

Yuqoridagilarda keltirilgan misollardan ko'rinib turibiki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining aksariyat bo'lim va boblarida insonravarlik va inson huquqi, yerkinliklari va qadr-qimmat tamoyillari belgilab qo'yilgan. Shuningdek, "Konstitutsiyamizning 13, 14, 19, 20, 21, 22, 25, 26 va boshqa moddalarida asosan insonravarlik tamoyillari, inson qadr-qimmat, inson huquq va yerkinliklari oliy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan". "O'zbekiston — ijtimoiy davlat degan qoidaning amaliy hayotimizdagi tasdig'ini birgina ana shu misolda ham yaqqol ko'rish mumkin".

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ma'rifatparvar ajdodlarimiz merosi bugungi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ularning g'oyalari Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan uyg'un va hamohangdir. Shu nuqtai nazardan, buyuk allomalarimizning, xususan Abu Nasr Forobiyning axloqiy mezon va tamoyillari hozirgi ijtimoiy-ma'naviy islohotlarda to'liq namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon alloma g'oyalarining ro'yobi va millat ruhining ifodasidir.

Xulosa va takliflar. Abu Nasr Forobiyning davlat va jamiyat boshqaruvi o'z ta'limoti bugungi kunda ham o'z

dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning insonparvarlik, adolat va jamiyat taraqqiyotida, xususan, fuqarolik jamiyati va adolatli ma'rifat tamoyillariga asoslangan qarashlari zamonaviy davlat barpo etishda muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Янги таҳрирдаги Конституция. Тошкент. 2023. – 49 б.
2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 16 b
3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2023-йил 22 декабрь куни Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи.
4. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 420 б.
5. Аристотель. Соч. Т.4. – Москва: Мысль, 1983. – С. 91.
6. Абу Наср Форобий. Рисолалар. (М.Хайруллаев таҳрири остида). –Тошкент: Фан, 1975. -.44 б.